



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'Ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	

KO'P TILLI MUHITDA INGLIZ TILINI O'RGANISHNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI



Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 38-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda kuzatiladigan lingvistik xususiyatlar hamda til o'rganish davomida yuzaga keladigan muammolar nazariy-tahliliy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda intertil hodisasi, ijobiy transfer, fosillanish jarayoni, grammatik va fonologik xususiyatlarning ingliz tilini o'zlashtirishga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ko'p tilli muhitda ingliz tilini samarali o'rganish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: intertil, ijobiy transfer, fosillanish, grammatik tuzilmalar, fonologik xususiyatlar, lingvistik xususiyatlar.

Abstract: This article presents a theoretical and analytical study of the linguistic features observed in students learning English in a multilingual environment, as well as the problems arising during the language learning process. The study analyzes the phenomena of interlanguage, positive transfer, fossilization, and the influence of grammatical and phonological features on English language acquisition. In addition, practical recommendations for effective English language learning in a multilingual environment are provided.

Key words: interlanguage, positive transfer, fossilization, grammatical structures, phonological features, linguistic features.

Аннотация: В данной статье проведено теоретико-аналитическое исследование лингвистических особенностей, наблюдаемых у учащихся при изучении английского языка в полиязычной среде, а также проблем, возникающих в процессе изучения языка. В исследовании анализируются явления интеръязыка, положительного трансфера, фоссиллизации, а также влияние грамматических и фонологических особенностей на усвоение английского языка. Кроме того, представлены практические рекомендации по эффективному изучению английского языка в условиях полиязычной среды.

Ключевые слова: интеръязык, положительный трансфер, фоссиллизация, грамматические структуры, фонологические особенности, лингвистические особенности.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo aholisining 60% dan ortig'i kamida ikki tilda so'zlashadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida ingliz tili xalqaro miqyosda dominant tilga aylanib, biznes, ta'lim, ilm-fan va onlayn kommunikatsiyalarning asosiy vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo, Yevropa Ittifoqi, Hindiston va Afrika mamlakatlarida ingliz tili ikkinchi yoki uchinchi til sifatida rivojlanish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim omili hisoblanadi. O'zbekistonda ham ushbu global tendensiyalar ta'sirida ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2021-2030 yillarga mo'ljallangan "Ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida ingliz tili 1-sinfdan boshlab majburiy fan sifatida o'qitilmoqda. Biroq ko'plab o'quvchilar uchun ingliz tili uchinchi yoki hatto to'rtinchi til bo'lib qolmoqda. Bunday ko'p tilli muhitda o'rganuvchilarning lingvistik xususiyatlari - xususan, transfer, kod almashish (code-switching) va metalingvistik ong kabi hodisalar - til o'rganish jarayonida yetarlicha o'rganilmagan va ilmiy adabiyotlarda to'liq yoritilmagan. Natijada o'rganuvchilar grammatik interferensiya, pragmatik xatolar va til vositalaridan samarasiz foydalanish kabi muammolarga duch kelmoqda.

Xorijiy til o'rganishdagi bunday to'siqlarni ilmiy jihatdan o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud. Selinker (1972) intertil nazariyasida, Lado (1957) kontrastiv tahlil yo'nalishida, Corder (1967) xatolarni tahlil qilish metodologiyasida, shuningdek O. Gratsia va Schmidt (1990) "noticing hypothesis" doirasida ko'p tilli muhitda til o'rganuvchilarda yuzaga keladigan muammolarni empirik tadqiq qilgan.



O'zbekistonlik olimlardan I. G'ofurov, G. Salmonov, O. Mo'minov, U. Ergashev, M. Nurimbetova va M. Sobirbaevalar ham ingliz tilini uchinchi yoki to'rtinchi til sifatida o'zlashtiruvchilarda kuzatiladigan interferensiya va transfer hodisalarini ilmiy izlanishlarida ko'rib chiqqan. Shu bilan birga, hozirgi kunda til o'rganuvchilarda kod almashish, grammatik va pragmatik xatolar muammosi to'liq o'z yechimini topmaganligi kuzatilmogda.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganuvchilarda yuzaga keladigan grammatik interferensiya va pragmatik transfer muammolarining lingvistik mohiyatini ochib berish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan nazariy asoslangan metodlarni taklif etishni mazkur maqolaning maqsadi etib olindi hamda shu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar bajarildi:

1. O'zbek va ingliz tillarining grammatik tizimlari orasidagi tizimli farqlarni aniqlash;
2. Ko'p tilli muhitdagi o'rganuvchilarning pragmatik kompetensiyasida kuzatiladigan xatolar turlarini tavsiflash;
3. Yuqoridagi muammolarni hal qilishda translanguaging, noticing, output strategiyalariga asoslangan nazariy-pedagogik model ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganish til o'rganuvchilarda turli ozgarishlarni olib kelishi odatiy hol. U yillar davomida o'z ona tili grammatikasida so'zlaydi, yozadi va fikrlaydi. Uchinchi til sifatida ingliz tili o'rganuvchida ijobiy yoki salbiy transferni yuzaga keltirishi mumkin.

R.Lado bu bo'yicha izlanishlari asosida ikki tili va madaniyatni maqsadli taqqoslab, ingliz tilini ikkinchi yoki uchinchi til sifatida o'rganayotgan o'quvchilarda u tilning o'z ona tili grammatikaga o'xshash elementlari unga oson tuyulishi va bu ijobiy transferni hosil qilishini, ona tili grammatikasi bilan o'rganayotgan til grammatikasida farqli elementlar kuzatilsa salbiy transferni hosil qilishini aniqlagan. Hamda til o'rganuvchilar uchun madaniy farq til o'zlashtirishda ahamiyatini ham alohida ta'kidlagan.

Chunki bir millat til rivojlanishida millatning madaniyatini, tarixini, ijtimoiy hayotini ham ifodalashini, ushbu tilni o'zlashtiruvchi shaxs esa grammatik va lug'aviy qoidalarni o'rganish bilan tilni mukammal o'rgana olmasligini tadqiqotlarida isbotlagan. Hamda ko'p tilli muhitda til o'rganish bir tilli muhitda til o'rganishdan nisbatan qiyin bo'lib, murakkabroq kognitiv jarayonlarni talab qiladi. Ya'ni u eshitgan va ko'rgan so'zlarini boshqa grammatik qolip asosida qayta ishlaydi va uni nutqi orqali ifodalaydi. Bunda til o'rganuvchilarda oraliq til tizimi shakllanib qoladi va bu intertil doimiy o'zgarib, rivojlanib boradi va unda ba'zan ayrim xatolarni vaqt o'tishi bilan bartaraf bo'lmasligi hodisasi kuzatiladi. Ya'ni o'quvchi o'zining barcha bilgan tillaridan ma'lum elementlarni aralashtirib yuborishi ingliz tilini ba'zi qoidalarini soddalashtirib yuborishi mumkin. Masalan, she goes o'rniga she go ; an apple o'rniga apple. Bunga sabab, o'zbek tili grammatikasida uchinchi shaxs fe'lga qo'shimcha qo'shilmaydi, otlar oldidan artikl ishlatilmaydi.

Til o'rganuvchilarda yuzaga keladigan yana bir muammolardan biri kod almashish holatidir. Kod almashish - ko'p tilli shaxsning bir til birligidan ikkinchi til birligiga o'tish hodisasi bo'lib, u uzoq vaqt davomida til o'rganishdagi kamchilik va bir tilda to'liq gapirish qoidasi buzilishi sifatida qaralgan. Masalan, men kecha new words yodladim, yangi telefonimga ilovalar download bo'lmayapti kabi. Biroq zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar kod almashish muloqotning strategik vositasi ekanligini ko'rsatmogda.

Kod almashish tushunchasini kengroq izohlaydigan bo'lsak, ko'p tilli shaxslarning barcha til resurslari bir butun lingvistik repertuar sifatida faollashishi yuz beradi. Natijada ma'no anglatayotgan so'zning qaysi tildagi varianti tez esga kelsa, yorqinroq eslansa shu tildagi so'zning varianti nutq bilan ifodalanadi. Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarda til haqida fikr yuritish qobiliyati(metalinguistic awareness) kuchli bo'ladi. Bunday o'quvchilar tillarni solishtirish, farqlarni aniqlash va o'z xatolarini tuzatishda ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Masalan, sintaktik jihatdan ingliz tilida gap tuzilishi SVO (subject-verb-object) shaklida, o'zbek tilida esa SOV (subject-object-verb) shaklida bo'lishini tez anglab oladilar.

Larry Selinker XX asr oxirlariga kelib ikkinchi va uchinchi til o'rganuvchilarda yuzaga keladigan "interlanguage" tushunchasini fanga kiritib, ikkinchi til o'rganuvchilari ona tili va maqsadli til o'rtasida mustaqil, dinamik, va tizimli oraliq lingvistik tizimga ega ekanligini isbotlagan. Keyinchalik o'z nazariyasini yanada kengaytirib, 1992-yilda nashr etilgan "Rediscovering interlanguage" kitobida bu boradagi tadqiqotlar va fikrlarni jamlagan. Kitobda til o'rganishda til o'rganuvchi psixologiyasi, konstrativ tahlil va ikki tillilik masalalarini qamrab olgan. Selinkerning intertil nazariyasidagi eng muhim tushunchalarifdan biri fosillanishdir. Ya'ni til o'rganish davomida o'quvchining o'rganishdan to'xtab qolishi, til o'zlashtirishning yakuniy bosqichlarida doimiy xatoliklarning takrorlanishidir. U buni o'rganuvchining yoshi, motivatsiyasi yoki ta'lim olishiga qaramasdan, ma'lum so'z, tovush, grammatik qoida o'zgarishsiz o'sha holatda qotib qoladigan va o'zgarishdan to'xtaydigan jarayon sifatida ta'riflagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

XX asrning 70-80- yillarida Stephan Krashen ham ikkinchi til o'zlashtirish sohasida o'zining nazariyasini ishlab chiqdi. Ushbu modelda beshta gipoteza o'rin olgan bo'lib, ular birgalikda til o'rganishning jarayonining yaxlit manzarasini taqdim etadi. Krashen ushbu nazariyasida tilni o'zlashtirish ongsiz, intuitiv jarayonligini, bola o'z ona tilini o'zlashtirishini tushuntirgan. Til o'rganish jarayoni esa ongli jarayon bo'lib, grammatika qoidalarini o'rganish va xatolarini tuzatishga asoslanishini o'rgangan. Hamda til o'rganishda bilimlar faqat monitor yoki muharrir vazifasini bajarishini bu uchun esa o'quvchi grammatik qoidani bilishi, diqqatini qoidaning to'g'riligiga qaratishi, qoidani qo'llash uchun yetarli vaqt bo'lishi kerakligi shartligini aytgan.

Yuqorida Larry Selinker, Pit Corder, Robert Lado va Stephen Krashenlarning ikkinchi til o'zlashtirish sohasidagi asosiy nazariyalari tahlil qilindi. Quyida esa nazariyalarning ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganish jarayoniga tatbiqi, ularning o'zaro bog'liqligi, afzalliklari va cheklovlari muhokama qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariyaning qiyosiy tahlili

L.Selinker, P. Corder, R. Lado va S. Krashen yondashuvlarini quyidagicha taqqoslash mumkin. Lado nazariyasi bo'yicha asosiy e'tiborini tillararo farqlarga qaratgan, til o'rganuvchi passiv rolni bajaradi, o'qituvchi esa qiyinchilikni oldindan bilib uni oldini olish, buni ko'p tilli muhitda birinchi til va ikkinchi til o'rtasidagi taqqoslash mumkinligini aniqlagan.

Corder nazariyasiga ko'ra asosiy e'tiborni xatolarning tizimli qaytarilib turishini, til o'rganuvchi faol shaxs bo'lib, til o'rgatuvchi esa o'quvchiga xatolarni tahlil qilish va uni tushuntirishga yordam berishi, ko'p tilli muhitda esa birinchi til aralashuvidan tashqari boshqa manbalar ham o'rganilishini asoslagan.

Selinker nazariyasida asosiy e'tiborni oraliq tilning mustaqilligiga qaratgan, til o'rganuvchi faol bo'lib, o'qituvchi intertil rivojini kuzatib turishi kerakligini, ko'p tilli muhitda esa ko'p tilli intertillarning o'zaro ta'siri bo'lishini aniqlagan.

Interferensiya va transfer tahlili

R.Ladoning konstrativ tahlil gipotezasi ko'p tilli muhitda, ayniqsa o'zbek, rus, ingliz tillari o'zaro ta'sirida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gipotezada fonetik interferensiya ya'ni, ingliz tilida mavjud ba'zi tovushlar o'zbek tilida aynan bo'lmasdan unga maqbul shaklda almashtirilishi mumkin. Grammatik interferensiya jihatidan esa, ingliz tili sintaktik tuzilishi o'zbek tili gap tuzilishidan farq qilib unga ekvivalent bo'lmaydi va ba'zi xatolarga olib kelishi holatlari kuzatiladi.

Fosillanish muammosi tahlili

Selinker tomonidan kiritilgan fosillanish tushunchasi ko'p tilli muhitda, ayniqsa ikkinchi va uchinchi tillarni ketma-ket o'rganayotgan o'quvchilar uchun dolzarbdir. Unga ko'ra, ingliz tilini yuqori darajada o'zlashtirgan o'zbek o'quvchi uni rus tilida ingliz tiliga xos intonatsiya va sintaktik tuzilmalarini o'xshash holda ishlatishga moyil bo'ladi. Ya'ni bu holat ko'proq affektiv filtr yuqori bo'lib, o'quvchi xato qilib qo'yishdan havotirlangan vaqtlarda kuzatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy tahlil va muhokamalardan kelib chiqib ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganish uchun o'quvchida xatolarni yo'q qilish emas, balki xatolarni o'rganish jarayonining muhim belgisi sifatida bilishi lozimligi aniqlandi. Xatolarni tahlil qilishda o'qituvchi o'rganuvchilarga intertil rivojlanish bosqichini aniq tushuntirib berishi ularda xatolarda to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi. Hamda fosillanish holatlarini oldini olish uchun o'quvchining intertilini muntazam kuzatib o'z vaqtida unga to'g'ri yo'nalish berish lozim. Ushbu maqolada nazariy ma'lumotlar tahlili bilan cheklanildi, unda olimlarning empirik tadqiqotlari xulosasi berildi.

Maqola kelgusida uch tilli intertil tizimini rivojlanishini aniqlovchi empirik tadqiqotlarda nazariy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. O'rganuvchilarda kuzatiladigan fosillanishning neyrolingvistik mexanizmlari uchun nazariy ma'lumot berishda foydali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Corder, S.P. (1967). "The Significance of Learner's Errors." *International Review of Applied Linguistics*, 5, 161-170.
2. Selinker, L. (1972). "Interlanguage". *International Review of Applied Linguistics*, 10(3), 209-231.
3. Krashen, S.D. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman.
4. Gass, S.M. & Selinker, L. (2008). *Second Language Acquisition: An Introductory Course*. Routledge.
5. Nguyen, Q.N. (2025). "Beyond comprehensible input: a neuro-ecological critique." *Frontiers in Psychology*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.